



Xulosa (Conclusion//Заключение). Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkin, asosiy miqdorlarni o’rgatish jarayonida o’quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish – boshlang’ich matematika ta’limining muhim maqsadlaridan biridir. Bu yo’nalishda o’qituvchilardan quyidagilar talab etiladi: miqdorlar orasidagi bog’lanishni tushuntirish, amaliy mashqlar yordamida taqqoslash va solishtirishni o’rgatish, masalalarni real hayot bilan bog’lab tushuntirish, o’quvchilarni interfaol va o’yinli metodlar bilan ko’proq ishlatish, muammoli vaziyatlarni hal etishga oid masalalar bilan mantiqiy fikrlashini o’stirish muhimdir. Kelgusida bu sohada boshlang’ich sinf matematika darslarida miqdorlar tushunchasining har bir sinf kesimi bo’yicha grafigi va tavsiyalar ishlab chiqilsa, o’quvchilarda miqdoriy bog’lanishlar mavzusida turli xil matnli masala, grafikli masala va ularni noodatij ishlab chiqilsa va pedagogik texnologiyalardan, multimedia va grafik vositalardan keng foydalanilsa, boshlang’ich sinflarda matematik tafakkur va ta’lim samaradorligi sezilarli darajada ijobiy natija beradi deb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo’lib o’tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so’zlagan nutqidan.
2. Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich. The relevance of educating primary education students based on national content. (2025). *The Conference Hub*, 38-43. <https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/170>
3. Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich. The relevance of educating primary education students based on national content. (2025). *The Conference Hub*, 8-12. <https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/169>
4. Mirzaakbarovich M.A. Ways to teach future teachers to think logically through japanese puzzles. (2024). *Conferencea*, 12-16. <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/3120>
5. Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich. (2025). Pedagogical and psychological foundations of teaching students based on national content. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17228152>

**BO’LAJAK TEXNOLOGIYA O’QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI
SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING ROLI**

Abdieva Saltanat Patullaevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
abdievasaltanat68@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi bo’lajak texnologiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining ahamiyati va ularning o’qituvchilar tayyorlash tizimidagi roli yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta’limda qo’llanilayotgan interfaol metodlar, raqamli vositalar va pedagogik yangiliklarning samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: kasbiy kompetentlik, texnologiya ta’limi, innovatsion texnologiyalar, kreativlik, raqamli muhit, interfaol usullar.

**THE ROLE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF
PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS**

Abdiyeva Saltanat Patullayevna

basic doctoral student of the Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz
abdievasaltanat68@gmail.com

Abstract: This thesis highlights the importance of innovative educational technologies in the formation of future technology teachers' professional competence and their role in the teacher training system. The effectiveness of interactive methods, digital tools, and pedagogical innovations used in modern education is also analyzed.

Keywords: professional competence, technological education, innovative technologies, creativity, digital environment, interactive methods.



РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЙ

Абдиева Салтанат Патуллаевна

докторанту Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза
abdievasaltanat68@gmail.com

Аннотация: В данном тезисе освещается значение инновационных образовательных технологий в формировании профессиональной компетентности будущих учителей технологии и их роль в системе подготовки учителей. Также анализируется эффективность интерактивных методов, цифровых инструментов и педагогических инноваций, используемых в современном образовании.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, технологическое образование, инновационные технологии, креативность, цифровая среда, интерактивные методы.

Zamonaviy ta’lim tizimi o’qituvchidan keng qamrovli kasbiy kompetentligini talab etadi. Bo’lajak texnologiya o’qituvchilari nafaqat o’z mutaxassisligi bo’yicha bilimlarga ega bo’lishi, balki innovatsion yondashuvlar orqali o’quvchilarda texnik tafakkur va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga ham qodir bo’lishi zarur. Shu bois, kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining o’rni muhim ahamiyat kasb etadi. [1]

Innovatsion ta’lim texnologiyalari — bu o’qitish jarayonini takomillashtirish, samaradorligini oshirish va talabalarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv hamda amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik tizimdir. Bo’lajak texnologiya o’qituvchilari uchun loyiha asosida o’qitish, muammoli ta’lim, modulli o’qitish, axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) va raqamli vositalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. [2]

Innovatsion ta’lim texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o’rni va ularning bo’lajak texnologiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Innovatsion ta’lim texnologiyalari o’qitish jarayonini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish hamda talabalarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga yo’naltirilgan zamonaviy pedagogik tizim sifatida talqin etiladi.

Bizning fikrimizcha o’qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o’quvchilarni yangicha fikrlash, tahlil qilish va amaliy faoliyatga yo’naltiruvchi shaxs sifatida shakllanishi zarur. Shu bois, bo’lajak texnologiya o’qituvchilari uchun loyiha asosida o’qitish, muammoli ta’lim, modulli o’qitish, axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) va raqamli vositalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar ta’lim jarayonini faollashtiradi, talabalarining ijodiy salohiyatini oshiradi va ularni real hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Xususan, loyiha asosida o’qitish metodida talabalar amaliy loyihalarni ishlab chiqish orqali o’z bilimlarini real vaziyatlarda qo’llashni o’rganadi; muammoli ta’lim esa ularni tahlil qilish va yechim topishga o’rgatadi; modulli o’qitish talabalarining mustaqil o’rganish qobiliyatini rivojlantiradi. AKT va raqamli vositalar esa o’qituvchini zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o’rgatadi, ta’limning raqamli muhitda tashkil etilishini ta’minlaydi. Masalan, loyiha texnologiyasi talabalarga real muammolarni yechishda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog’lash imkonini beradi. Shuningdek, muammoli ta’lim metodi orqali talabalarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish kompetensiyalari rivojlanadi. [3]

Shu tariqa, innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo’llash bo’lajak texnologiya o’qituvchilarida pedagogik, axborot-kommunikativ, ijodiy va refleksiv kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu esa ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshiradi va zamonaviy ta’lim tizimida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Xudoyberdiyeva, D. muallifligidagi “Zamonaviy ta’limda o’qituvchining kasbiy kompetentligi” nomli ilmiy asarida bo’lajak texnologiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda quyidagi yo’nalishlar muhim deb hisoblab o’tadi:

- metodik kompetentlik – dars jarayonini samarali tashkil etish;
- axborot-kommunikativ kompetentlik – raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- ijodiy kompetentlik – yangicha fikrlash va muammolarga noodatiy yondashuvni shakllantirish;
- refleksiv kompetentlik – o’z faoliyatini tahlil qilish va o’z ustida ishlash. [4]



Innovatsion ta’lim texnologiyalarining qo’llanilishi o’quv jarayonini faollashtiradi, talabalar motivatsiyasini oshiradi hamda ularning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi. Natijada, o’qituvchi zamonaviy ta’lim muhitida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanadi. [5]

Xulosa qilib aytganda, bo’lajak texnologiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining roli beqiyosdir. Ular o’quv jarayonini samarali tashkil etish, o’qituvchilarning ijodkorligini oshirish va ularni zamonaviy pedagogik muammolarni hal etishga tayyorlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarni joriy etish va amaliy mashg’ulotlarni kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev, M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va ularning o’qituvchilar tayyorlashdagi roli. – Toshkent: 2021. Fan nashriyoti, 45–48-betlar.
2. Karimova, N. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent -2022. O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 72–76-betlar.
3. G’aniyeva, S. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent:2020 Iqtisod-Moliya, 55–60-betlar.
4. Xudoyberdiyeva, D. Zamonaviy ta’limda o’qituvchining kasbiy kompetentligi. – Toshkent: 2019. Innovatsiya nashriyoti, 33–37-betlar.
5. Rahimov, B. Innovatsion yondashuvlar asosida o’qituvchilar tayyorlashning samaradorligi. – Toshkent: 2023. Ta’lim bosma uyi, 81–85-betlar.

METAFORIK ANGLASH JARAYONIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TRANSFORMATSIYASI

Nishonova Adiba Adxamjon qizi

Namangan davlat universiteti 2-bosqich tayanch-doktoranti
@adibanishonova97gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o’zbek tilidagi frazeologik birliklarning semantik transformatsiyasi va qayta anglanish jarayoni tadqiq qilinadi. Frazeologizmlar o’zining birlamchi nominativ ma’nosidan chiqib, kontekstda yangi metaforik, ekspressiv va lingvomadaniy qirralarga ega bo’lishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, frazeologizmlarning badiiy matnlarda mazmuniy yukini kengaytirishi, ijtimoiy-axloqiy va estetik funksiyalarni bajarishi ko’rsatib o’tiladi. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning nafaqat til tizimidagi, balki madaniy-ma’naviy jarayonlardagi muhim o’rnini ochib beradi.

Kalit so’zlar: frazeologik birlik, integratsiya, transformatsiya, frazeologiya, konnotatsiya, semantika, sema.

СЕМАНТИЧЕСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПРОЦЕССЕ МЕТАФОРИЧЕСКОГО ВОСПРИЯТИЯ

Нишонова Адиба Адхамжон кизи

Наманганский государственный университет, соискатель второго года обучения
E-mail: adibanishonova97@gmail.com

Аннотация: В статье исследуется процесс семантической трансформации и переосмысления фразеологических единиц в узбекском языке. Показано, что фразеологизмы выходят за рамки своего исходного номинативного значения и в контексте приобретают новые метафорические, экспрессивные и лингвокультурные оттенки. Особое внимание уделяется их роли в художественных текстах, где они расширяют смысловую нагрузку и выполняют социально-нравственные и эстетические функции. Результаты исследования подчеркивают значимость фразеологических единиц не только в языковой системе, но и в культурно-духовной жизни общества.

Ключевые слова: фразеологическая единица, фразеология, коннотация, семантика, sema.

SEMANTIC TRANSFORMATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE PROCESS OF METAPHORICAL PERCEPTION